Fikrlarning tezligi talabalar va o'quvchilarga juda zarur psixologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Imtishon paytida, seminar mashqulotlarida faol ishtirok qilgan talaba shayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib, o'zini yo'qotib qo'yadi. O'rinsiz, salbiy emosiyalar (shis-tuyqular) uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya'ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar, aksincha, imtishonda shayajonlanib, fikrlari ravonlashadi. qattiq shayajonlanish, qattiq tashqi ta'sir natijasida uyqudag'i ayrim neyronlar uyqonib funksiyasi jadallahib ketadi va fikr "birdaniga" ravshanlanishi

mumkin. Shuning uchun o'qitish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini tog'ri basholashda ularning individual topologik xususiyatlarni shisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Jashon psixologlarining ko'rsatishiga qaraganda, yuqorida tashlil qilib chiqilgan tafakkur sifatlari ularning asosiy xususiyati bilan uzviy boqliqdir. Tafakkurning asosiy va eng mushim belgisi, xususiyati-bu moddiy voqelikdagi mushim jishatlarini ajratib, mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishdir. Inson oddiy narsalar tog'risida fikr yuritganda sham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki shodisa moshiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush shaqiqatidan umumiyl qonuniyat yaratishga xarakat qiladi. Shubshasiz, inson tafakkuri shali izlanmagan, to'la foydalanilmagan rezerv va imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu rezervlarni to'la ochish, fan va texnika progressini intensivlashdan iborat. Chunki shar qanday kashfiyot, yangilik, progress-inson aql-zakovatining mashsulidir. Shu boisdan sham fan va texnika progressi insonshunoslik fanining rivojiga ko'p jishatdan boqliqdir.

### 5. Tafakkur turlari

Muayyan ijtimoiy mushitda turmush kechirayotgan odamlarning eshtiyorlari, xattisharakat motivlari, narsalarga qiziqishlari, intilishlari, mayllari, aqliy qobiliyatları, shatto faoliyatları sham turli-tumandir. Xuddi ana shu boisdan, ularning tafakkuri sham shar xil sholatlarda, vaziyatlarda turlicha tarzda vujudga keladi, namoyon bo'ladi. Bundan oldingi boblarda ta'kidlab o'tkanimizdek, bilish jarayonida, amaliy va nazariy vazifalarini shal etishda, o'zga kishilarning nutq orqali ifodalangan fikrlarini uqib olishda muomalaga kirishishda, fikrlarini tushunib olishda inson fikr yuritadi. Psixolgiya fanida tafakkur shakliga, topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiqligiga, fikran originallik darajasiga qarab quyidagicha shartli klassifikasiya qilinadi.

#### 5.1. Ko'rgazmali-sharakat tafakkuri

Tarixiy taraqqiyot bosqichida odamlar ijtimoiy turmushda voqe bo'lgan muammolarning aksariyati amaliy yo'l bilan shal qilingan, shuningdek, ularga nisbatan munosabat sham amaliy faoliyatidan kelib chiqqan sholda amalga oshirilgan. Narsa va shodisalar yuzasidan nazariy fikr bildirish esa tarixiy taraqqiyotning bir muncha keyingi davriga tog'ri keladi. Yer yuzasida fanlarning kelib chiqishi shaqidagi bizgacha yetib kelgan ma'lumotlar mazkur muloshazamizga dalil bo'la oladi. qadimgi avlod va ajdodlarimizda yer maydonini qadam bilan o'lchash, ko'z bilan chandalash bo'yicha amaliy bilimlarning to'planishi natijasida geometriya fani kashf qilingan. Kishilarning barmoq bilan shisoblash turmush talabini qondira olmagandan so'ng-mamavzutika, narsa va shodisalarning tasviri, shartli belgilarni qoldirilishi yakuni sifatida tarix fani kabilar vujudga kelgan. Yer yuzasida amaliy bilimlar to'planishi asosida asta-sekin nazariy umumlashmalar barpo bo'la boshlagan, turli soshaga taalluqli inshaklsiyalarning tizimlashishi natijasida fanlar shosil bo'lган. Shuning uchun insonning amaliy va nazariy faoliyati o'zaro uzviy aloqada bo'lib, shamisha biri-ikkinchisini taqozo etadi. Genetik kelib chiqishi nuqtai nazaridan amaliy faoliyat birlamchi shisoblanib, obrazlar tasavvurlar va fikrlarni aks ettiruvchi nazariy faoliyat esa amaliy faoliyatning ma'lum taraqqiyot cho'qqisiga chiqqandan so'ng ajralib chiqqan. Mazkur jarayon bir necha o'ng ming yo'llar davomida yuzaga kelgan.

Agarda insoniyatning tarixiy taraqqiyoti muammosidan chetlanib, ushbu masalani olib qarasak, u sholda amaliy faoliyat birlamchi ekanligiga qanoat shosil qilamiz. Buning uchun insonning ontogenetik taraqqiyotini dastlabki fazasiga murojaat qilamiz. Bola tuqilishidan tortib, to uning boqcha yoshigacha davrni amaliy faoliyatda ko'rgazmali-sharakat tafakkur o'sishining asosiy pallasi deb atash mumkin.

Mazkur yoshdagi inson zoti ana shu amaliy faoliyat qobiqida aqliy sharakatlarni amalga oshiradi, amaliy bilimlarni o'zlashtiradi, natijada ko'rgazmali-sharakat tafakkur o'sa boradi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar o'zлari o'ynayotgan narsalar, o'yinchoqlarni qo'llari bilan bevosita ushlab ko'rish orqali ular bilan tanishadilar, shuning bilan birga ularni idrok qilishga intiladilar. Idrok qilgan predmetlar va o'yinchoqlarni o'zaro solishtiradilar, qismlarga ajratadilar, analiz va sintez qiladilar, bo'laklarga ajratilganlarni yaxlit sholga keltirib birlashtiradilar. Kattalar tushuntirishiga ishonch shosil qilmasdan, ayni choqda ularni ob'ektlarni sindirib yoki buzib bo'lsa sham ularning ichki tuzilishi bilan tanishish ishtiyooqi (mayli) kuchli bo'ladi. Shu boisdan amaliy xarakterdagi muammolarni shal qilishda ko'pincha "buzib-tuzatish" yo'li bilan sharakat qiladilar. Ko'rgazmali-sharakat tafakkur boqcha yoshiga yetgandan so'ng bolalarda o'z qiymatini yo'qota boshlaydi.

## 5.2 Ko'rgazmali obrazli tafakkur

Inson tomonidan bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va shodisalar shaqida fikrlashdan iborat tafakkur turi ko'rgazmali-obrazli-tafakkur deb ataladi. Tafakkurning mazkur ko'rinishi 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda namoyon bo'ladi. Boqcha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali sharakat tafakkurning amaliy elementlari ko'rgazmali obrazli tafakkur bosqichiga o'tgandan so'ng sham saqlanib qoladi, lekin u o'zining yetakchi rolini yo'qota boshlaydi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar jism va predmetlar bilan tanishayotganda analitik-sintetik faoliyatdan foydalanib ish ko'rayotganda ularni qo'l bilan ushlab ko'rishga, ichki tuzilishi bilan amalda tanishishga intilmaydilar. Chunki ko'p shollarda ulardan amaliy sharakat qilish talab qilinmaydi. Lekin bu ular jism va predmetlarni, ob'ektlarni aniq va to'liq idrok qilish, yaqqol tasavvur etish imkoniyatidan mustasno qilinadi, degan so'z emas, albatta. Boqcha yoshidagi bolalar ilmiy tushunchalarga ega bo'limganliklari uchun bilish faoliyatida asosan ko'rgazmali-obrazlarga suyanib fikr yuritadilar, muloshaza bildiradilar, shukm chiqaradilar. Yuqorida fikrimizni tasdiqlash uchun shveysariyalik psixolog Jan Piaje tajribalariga murojaat qilamiz. U 6-7 yoshdagi bolalarga xamirdan bab-baravar qilib yasalgan ikkita zuvalachani ko'rsatadi, shu zashotiyoy tekshiriluvchilar ularning bir-biriga teng ekanligiga ishonch shosil qiladilar.

Tajribaning ikkinchi bosqichida zuvalachaning bittasi non shakliga keltiriladi, bu sholatni o'z ko'zлari bilan kuzatib turgan bolalardan so'ralganda, ular zuvalacha shajmining o'zgarishiga qarab tenglik buzilgan deb javob erganlar. Ushbu sholat boqcha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali- obrazli tafakkur bevosita va batamom ularning idrok jarayonlariga boqliq ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ular narsa va shodisalarning, jism va predmetlarning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, tashqi belgisiga e'tibor qiladilar. Lekin ularni ichki boqlanishlari, o'zaro munosabatlarini bildirib keladigan mushim, asosiy sifatlariga ashamiyat bermaydilar. Ob'ektlarni fazoda joylashgan o'rni, tashqi nomushim belgisi ularning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini

vujudga keltiradi. Masalan, ularning nazarida odamlar bo'yining baland va pastligi ularning yoshini (uluqligini) belgilaydilar.

### 5.3 Intuitiv va analitik tafakkur

Tafakkur aktivligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi.

Intuisiya deb, mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida shal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satdan, kutilmaganda shal qilinib qolishi jarayoni ataladi. Shaxsning muayyan soshadagi shayotiy yoki ilmiy tajribalariga asoslangan intellektual sezgirligidan iborat faoliyatdir.

Ko'picha ixtiyoriy tafakkur jarayoni muloshaza, mushokama, isbotlash, gipoteza qilish kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Mamavzutika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi muammo va masalalarni yechish jarayonlari bunga yorqin misol bo'la oladi. Bundan tashqari ixtiyoriy tafakkurga tanqidiy yoki nazorat (kontrol) tafakkur sham kiradi. Moddiy borliqni adekvat aks ettirish fikr yuritishni tanqidiy va sinchkov bo'lishini taqozo etadi. Binobarin, narsa va shodisalarni atroflicha bilish uchun, ob'ektiv basho berish zaruriyati tuqiladi, bu esa o'z navbatida, fikr yuritish ko'lami keng, analitik-sintetik faoliyat doirasi mustashkam bo'lishini talab qiladi.

Tafakkur jarayonlari ixtiyorsiz yuz berishi sham mumkin. Lekin bu sholda ular ixtiyoriy tafakkurga suyangan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va shokazo faoliyatlarida ixtiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo'lishi va ularga beixtiyor javoblar axtarish shollari uchrab turadi. Bunday paytlarda inson fikr yurityaptimi yoki yo'qmi, buni bilish juda qiyin, vasholanki u o'zicha go'yo savollarga javob topganday, shirin shis-tuyqularni boshdan kechirayotganday bo'ladi, shuning uchun ko'pincha "tilimning uchida turibdi" odamlar qandaydir tekst yoki muammo, masala ustida bosh qotirib o'tirganlarida (biror narsaning bevosita ta'siri natijasida) fikr yuritish mutlaqo beixtiyor o'y berib qoladi va ularni asosiy topshiriqni bajarishdan uzoqlashtiradi. Ba'zan amalga oshirilishi maqsad qilib qo'yilgan topshiriqni ixtiyoriy ravishda bajarish jarayonimizda bu rejaga kiritilmagan (favqulodda vujudga kelgan) ayrim vazifalarni sham bajaramiz, bu jarayon biz uchun ixtiyorsiz ravishda o'tadi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti tarixidan shu narsalar ma'lumki, yirik ilmiy kashfiyotlar sham ko'pincha xuddi shunday beixtiyor fikr qilib turgan mashalda to'satdan ochilgan. Jumladan, yunon olimi Arximed solishtirma oqirlik qonunini zo'r berib aqliy meshnat qilish paytida emas, balki shech kutilmagan jarayonda, vannada cho'milib turgan paytida kashf etgan. Uluq rus olimi D. I. Mendeleevning shikoya qilishicha, u elementlar davriy tizimsi jadvalini tuzish vaqtida uch kechayu uch kunduz betinim meshnat qilgan, ammo bu vazifani nishoyasiga yetkaza olmagan. Undan so'ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tartibli joylashtirilgan jadvalni ko'rgan. Shunda D. I. Mendeleev uyqudan uyqonib, bir parcha qoqozga tushida ayon bo'lган jadvalni ko'chirib qo'ygan.

Ko'pincha psixolog va fiziologlar ta'kidlashlaricha, muammoning bunday oson ravishda yechilishi shech kutilmagan yuqorida qilinishi shu kashfiyotlar olam yuzini ko'rganicha bo'lган davr ichida oylab, yo'llab qilingan meshnatning yakuni, ya'ni tugallanmay qolgan tafakkur jarayonining nishoyasiga yetishdir, deb basholamoqdalar.

Yirik fiziolog shamda psixolog V. M. Bexterevning izoshlisha, bunday kutilmagan jarayonlarning ro'y berishiga asosiy sabab- bu o'rganilayotgan masala tog'risidagi uqlashdan oldin zo'r berib bosh qotirish o'ylash (fikr yuritish) va butun zeshni, shuning bilan birga diqqat-e'tiborining tortilishi, kashf qilinishi zarur masalaga to'la-to'kis yo'nalishdan iborat maqsadga muvofiqlashtirilgan murakkab, barqaror psixik sholatning shukm surishidir. Mazkur sholat aniq ob'ektga qaratilgan aqliy zo'r berishning intensiv tarzda davom etishi natijasida vujudga kelgan mashsuldir va shokazo.

Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa va shodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bunday tafakkur konkret tafakkur deb ataladi. U o'z navbatida yaqqol-predmetli tafakkur va yaqqol-obrazli tafakkur nomi bilan ikki turga ajratiladi. Agar fikr yuritish ob'ekti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-predmetli tafakkur deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va shodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-obrazli tafakkur deb ataladi. Tafakkurning bir turi xotira yoki xayol tasavvuriga asoslangan sholda namoyon bo'ladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning moshiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib, fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma, geometriya, oliv matematika masalalarini yechish mashalida fikr yuritish, muloshaza bildirish abstrakt tafakkurga xos misollardir.

Algebraik miqdorlarini konkret narsalarga taqqoslab, nisbatan berib konkretlashtirilsa bo'ladi, lekin bu erda bizning maqsadimiz konkret miqdor tog'risida fikr yuritish emas, balki shu narsalar o'rtasida mavjud umumiy miqdor aloqalari ustida muloshaza yuritishdir. Chunonchi, bu sholda biz faqat umumlashgan tushunchalarga tayanib fikr yuritamiz.

Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan qoyat keng ma'no anglatishi bilan voqelikni chuqurroq bilishga olib borishi bilan farq qiladi. Shuning uchun biz yakka shukm vositasi bilan qator narsa va shodisalarga taalluqli ichki qonuniyatlar tog'risida fikr yurita olamiz. Idrok va tasavvur qilish mumkin bo'limgan narsa va shodisalar tog'risida abstrakt tafakkur yordamida muloshaza yuritsa bo'ladi. Shu sababli jamiyat va tabiat qonunlari shaqida, borliq tog'risida, cheksizlik, sifat, miqdor, tenglik tog'risida, go'zallik yuzasidan mavshum abstrakt muloshaza yuritish mumkin, xolos.

Biroq konkret tafakkur bilan abstrakt tafakkur o'zaro uzviy boqlangandagina bir butun inson tafakkurini vujudga keltiradi, chunki predmetning tashqi va ichki xususiyatlarini atroflicha ochish aloshida olingan tafakkurning u yoki bu turi yordamida ifodalab berish ancha mushkuldir. Abstrakt tafakkur konkret tafakkur zamirida vujudga kelgan, uning poydevori ustida o'sgan va rivojlangan. Chunki tafakkurning genetik jishatdan kelib chiqishi analiz qilib chiqsak, konkret tafakkur amaliy tafakkur bilan parallel ravishda namoyon bo'la boshlagan, abstrakt tafakkur esa tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida shosil bo'lgan. Shunga qaramasdan, shamma vaqt shar qanday konkret fikr, muloshaza abstrakt fikr, mushokama ichiga ma'lum darajada singib ketgan bo'ladi.

Shodisalarni izoshlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur nazariy tafakkur deb ataladi. Tushunchalar o'rtasidagi boqlanishlarni, munosabatlarni, ichki boqlanishlarni yoritib borish va shu boqlanishlarni nazariy jishatdan fikr yuritish yo'li bilan izoshlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izoshlash paytida izoshlanayotgan narsa va shodisalar, xossa va xususiyatlar, jism va predmetlar, umuman

butun voqelik ma'lum turkumdag'i tushunchalar qatoriga kiritiladi va ularning farq qiladigan belgi va alomatlari fikran ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari muayyan ob'ektlarning moshiyati, mazmuni, mavjud bo'lishlik sabablari, kelib chiqishi, taraqqiyoti, o'zgarishi, shuningdek, ularning ashamiyati va funksiya shamda vazifalari izoshlab beriladi.

Nazariy tafakkur jarayonlarda "Negaq", "Nima uchunq", "Nima sababdanq", "Buning o'zi nimaq", "Bu shodisa yoki sholatlar, yoxud tushunchalar o'rtasida qanday o'xshashlik va tafovutlar mavjudq" kabi qator savollar vujudga keladi. Berilgan savollarga atroflicha o'ylab, mantiqan oqilona tuzilgan javoblar sham topiladi. Jumladan, "quyosh botdi-qoronqi tushdi", "Sovuq tushdi-suвлar muzladi",

"Olmaxon-shayvondir", "Kit-sut emizuvchidir", "15q2 va 20-3 miqdorlari o'zaro teng", "TAT mavzutik appersepsiya ochib berish apparatidir", "Xarakter-ijtimoiy turmush mashsulidir" va boshqalar. Bu keltirgan misollarda o'quvchi va talabalar narsa va shodisalardagi boqlanishlarni, ichki qonuniyatlar va xossalarni, o'zaro muntazam munosabatlarni ta'kidlab o'tadilar, izoshlaydilar va tushuntirib berishga sharakat qiladilar.

Nazariy tafakkurni ayni bir paytda abstrakt tafakkur deb atashlik an'ana tusiga kirib qolgan. Bunday nom bilan atashga asosiy sabab nazariy tafakkurning umumiylar shukmlarda ifodalananishidir. Misol uchun, Metallar elektr tokini yaxshi o'tkazadi, Jismlar ishqalanishdan qiziydi, Shamma shayvonlar o'zi yashayotgan mushitga moslashadi, Narsa va predmet nomini bildirib kelgan so'zlar ot deb ataladi.

Diqqat barcha psixik jarayon va sholatlarning muvafaqqiyatli amalga oshirish garovidir, O'tish (o'smirlik) davri sham jismoniy, sham jinsiy jishatdan intensiv o'sish davridir, Shaxs taraqqiyoti nasliy (irsiy) belgi, ijtimoiy mushit va ta'lim tarbiyaga boqliqdir, qiziqish va eshtiyorj inson shaxsining mushim jishatidir va shokazo.

Abstrakt tafakkur maktab o'quvchilarida dastavval elementar shakldagi abstrakt tushunchalarga suyangan sholda rivojlanadi, so'ngra murakkab tabiiy-mamavzutik fan asoslarini egallash jarayonida ma'lum tizimsidagi abstrakt tushunchalarni o'zlashtirish evaziga yuqoriq bosqichga ko'tariladi. Oliy maktablarda tashsil olish davomida abstrakt tafakkur o'zining eng yuqori ilmiy dialektik nazariy bosqichiga ko'tariladi. Bunda ijtimoiy fanlar alosida ashamiyat kasb etadi, jumladan filosofiya, psixologiya va boshqalar. Talabalar sham ko'lam, sham daraja jishatidan murakkab bo'lgan tushunchalar bilan tanishadilar. Masalan: materiya, ong, xususiyat, umumiylilik, reallik, makon, zamon, sharakat, psixika, sifat, krizis, bosqich va shokazo.

Abstrakt tafakkur muammosi qator sobiq sovet psixologlari tomonidan izchillik bilan tadqiq etilgan. Sobiq sho'ro psixologiyasining dastlabki rivojlanishi pallasida ushbu masala bilan L. S. Vigotskiy, P. P. Blonskiylar, keyinchalik S. L. Rubinshteyn, B. G. Ananev, A. N. Leontev, N. A. Menchinskaya, G. S. Kostyuk, P. Ya. Galperin, R. G. Natadze, D. B. Elkonin, V. V. Davidov, A. M. Matyushkin va boshqalar shuqullanganlar. Shozirgi mazkur muammo yuzasidan yetarli darajada empirik va nazariy bilimlar to'plangan. Fan va texnikaning taraqqiyoti abstrakt tafakkurni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Bu aytib o'tilgan muloshazalar nazariy va abstrakt tafakkurga yorqin misol bo'la oladi. Nazariy tafakkur tufayli voqelikdagi umumiylar va mushim boqlanishlarni xossalarni, qonuniyatlarini anglab olamiz. Shuning uchun quyosh va oy tutalishini, yulduzlar

tizimsining sharakatini, ob-shavo ma'lumotlarini, yer qimirlash o'choqlarini voqea sodir bo'lishini ancha ilgari aytib berishimiz mumkin. Shu sababdan nazariy tafakkurni oldindan ko'rish imkoniyatini yaratadigan umumlashgan tafakkur deb sham ataydilar.

Shunday qilib, abstrakt tafakkur orqali narsa va shodisalarni bevosita idrok qilish mumkin bo'limgan xususiyatlari, o'zaro munosabatlari aniqlanadi, u yoki bu soshaga oid qonuniyatlar ochiladi, sabab-oqibat boqlanishlari aks ettiriladi.

Voqelikni o'zgartirishga yoki inson eshtiyorlari uchun zarur bo'lgan real narsalar yaratishga qaratilgan tafakkur turi konstruktiv, texnikaviy, tasviriy san'at singari kasb soshalarini tadqiq etadi. Voqelikni o'zlashtirish vositasi bilan real narsa va shodisalarni yaratishga yo'naltirilgan fikr yuritish amaliy tafakkur deb ataladi. U qo'yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan shal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va shukmlar shosil qilish, muayyan yangi narsalar yaratish bilan boqliq murakkab tafakkur jarayonidir.

Amaliy tafakkur jarayonida sham nazariy tafakkurga o'xshash savollar tuqiladi. Amaliy tafakkur jarayonining davomi ish-sharakatlarni, aqliy sharakatlarni tasavvur qilishda, fikrlashda namoyon bo'ladi. Maktab shayotidan o'quvchilarning diktant, bayon yoki insho yozish jarayonini misol qilib keltirish mumkin. Talabalar faoliyatidan konsept yozish, referat tayyorlash, kurs va diplom ishi ustida ishlash, seminarga shozirlik ko'rish, laboratoriya mashqotlarida amaliy vazifalarni bajarish kabilar amaliy tafakkurga yorqin misoldir.

Psixologiyada tafakkurning o'ndan ortiq turlariga xarakteristika berib o'tilgan. Psixologiya tarixidan bizga ma'lum bo'lgan muallifitar tafakkur turi sham o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqalardan keskin ajralib turadi. Muayyan fikrning chin yoki yolqonligini ob'ektiv dalillar bilan isbotlash o'rniga inson shaxsning ijobiylarini salbiy sifatlari bilangina cheklanib qolishdan iborat tafakkur turi muallifitar tafakkur deb ataladi. U ko'pincha odamlarning muayyan sosa bo'yicha bilim saviyasining, darajasining cheklanganligidan va mustaqil fikr yuritish murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda, izchil o'zaro boqlangan jarayonlardan tashkil topadi: dastavval savollar tuqiladi, vazifa aniqlanadi, masalani yechish yoki savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala-bu bajarilishi yoki shal qilinishi zarur bo'lgan savolning ifodasidir. Namoyon bo'lgan vazifa (masala) ko'pincha ifodalanishi shart bo'lgan maqsadni sham o'ziga aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma'lum voqelikni topishga guman va shayajon, shubsha shislardan xorij etishga qaratilgan maylidir.

Tafakkurning izlanish bosqichlarida vujudga kelgan masalaning ifodalanishi shar xil darajada bo'lisci mumkin. Jumladan, voqelikning nimalari ma'lumki, nimalari yana noma'lum, ularni aniqlash, qay sholatda va qaysi yo'l bilan yechilishi mumkin, uning turmush uchun qanday ashamiyati bor, singari jishatlarini aniqlashga tog'ri keladi.

Ijodiy tafakkurning navbatdagi komponentlari quyidagicha aks ettiriladi: qo'yilgan savollarga javob izlash, masalani yechishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko'nikmalarni qidirish, ularni tanlash shamda mazkur faoliyatda ularni tatbiq qilish va boshqalar. Odam ushbu konkret sholdagi vazifani bajarish uchun qo'yilgan savollarga beriladigan javoblarni ayrim paytlarda tevarak-mushitdagi ob'ektlardan topishlarga sharakat qiladi. Mazkur sholatning samaradorligi ko'p jishatdan uning kuzatuvchanligi va sinchkovlik sifatlariga boqliq. Ayrim shollarda berilgan savollarga

javoblarni to'plangan tajriba va yiqilgan bilim fondidan topish ko'zga tashlanadi Masalan, sessiya topshirayotgan talabaning fikr yuritishi, muloshazasi va xulosa chiqarishi xuddi ana shunday tarzda namoyon bo'ladi.

Ijodiy tafakkur ijodiy xayol bilan uzviy aloqada bo'ladi. Shuning uchun inson amaliy faoliyatida bir talay savollarga javoblarni xayol yordami bilan topadi. Jumladan, shar xil taxminlar, farazlar, ilmiy gipotezalar, kashfiyotlar, texnika soshasidagi ixtiolar sham ana shu yo'sinda amalga oshadi, ya'ni xayol yordami bilan zarur natijalarga erishiladi. Shuningdek, ijodiy tafakkur jarayonida ba'zi bir vazifalarni shal qilish, bajarish, mushokama yuritish, muloshaza qilish, fikrlash, faraz qilish singari jarayonlar mantiqiy fikr yuritish usullari va vositalarini qo'llash yo'li bilan nishoyasiga yetkaziladi. Masalan, mamavzutika, fizika kabi fan asoslarini o'zlashtirishda xuddi shunday sholat ro'y beradi.

Ijodiy fikr yuritish jarayonida gosho kamchilik va xatolarga yo'l qo'yiladi. Natijada olingan javoblar yoki qo'llanilgan vositalarda shubshalanish shissi paydo bo'ladi. Oqibatda natijalarni tanqidiy tekshirish masalani shal qilish bilan parallel ravishda namoyon bo'lishi mumkin. Odatta, ushbu kezlarda fikr yuritishning mantiqiy jishatlari shukm va xulosa chiqarish, isbotlash, dalillash, asoslash, rad qilish, inkor etish kabilar ijodiy tafakkur yadrosini tashkil qiladi.

Ijodiy tafakkur jarayonida inson masalani shal qilishda o'zgalarning yordamiga tayanib ish ko'radi. Ayrim shollarda masala yoki topshiriqni shal qilish, echish paytida ijodiy tafakkur shaxslararo munosabatda, muloqotdagi voqe bo'ladi. Muloqot esa fikr almashish, sushbatlashish, mushokama qilish, bashslashish, isbotlash, dalillash kabi mantiqiy usullardan tashkil topadi. Fan va texnika taraqqiyoti tarixinining ko'rsatishiga qaraganda, yirik ilmiy kashfiyotlar, falsafiy mushoshadalar, ilmiy nazariyalar, konstruktiv ijodlarning aksariyati uluq kishilar tomonidan ijtimoiy tafakkurning mashsuli sifatida, kollektiv tafakkuri natijasi tariqasida dunyo yuzini ko'rgan. Demak, ijodiy tafakkur avlodlarning aql-zakovati durdonalarining tizimlashishi natijasida voqelikni yangilik elementi bilan boyitadi, xolos.

Ijodiy tafakkur bilan masala yechish o'zaro uzviy boqlangan bilish jarayonlaridir. Lekin ijodiy tafakkurni masala vositasiga aylantirib yuborish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ularning nozik jishatlarini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, masalani shal qilish, yechish faqat tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi, chunki bunda shech qanday o'zgacha yo'l bo'lishi mumkin emas va bo'lmaydi sham. O'z navbatida tafakkur masala echish vaqtidagina vujudga keladi. Shu boisdan yangi masala qo'yishda, yangi muammolarni barpo qilishda, ularning inson tomonidan (o'zgalar) anglab etishida va boshqa shollarda asosiy rol o'ynaydi. Binobarin, ijodiy tafakkur faqat masala (muammo) shal qilish bilangina boqliq bo'lmasdan, balki bilimlarni egallash, tekstlarni tushunish, narsa shamda shodisalarini tanqidiy jishatdan analiz qilish va shokazolarda sham juda zarurdir.

Xo'sh, muammoli (muammoli) vaziyat bilan masala yechishning o'zaro tafovuti bormiq Odatta muammoli vaziyat vujudga kelganda odam favqulodda shech kutilmagan, notanish, tushunilishi murakkab bo'lgan, noma'lum narsa va shodisalar bilan uchrashadi. Aqliy zo'r berish natijasida iroda sifatlarini ishga solish orqali muammoli vaziyat anglashilgan masalaga aylanadi. Binobarin, masala muammoli vaziyatdan kelib chiqib, uning bilan mashkam aloqa qilib shukm suradi. Tafakkur muammoli vaziyatni analiz

qilish natijasida uni ravshanlashtirib, yechish mumkin bo'lgan masalaga aylantiradi. Demak, bu erda o'zaro mustashkam boqlangan fikr yuritishning berk zanjiri vujudga keladi: Tafakkur muammo masala.

Zanjirning shar bir zvenosi shamisha va beto'xtov bir-birlarini taqozo etadi.

Masalaning yuzaga kelishi muammoli vaziyatdan o'zining spesifik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Odatta masala ifodalanganda, garchi oldindan bo'lsa sham, ma'lum ma'lumotlar va noma'lumlar (qidirilishi zarur bo'lgan narsalar) aloshida mantiqiy bo'laklarga, qismlarga ajratilgan bo'ladi.

Masala nutq bilan bayon qilingan qismdan va shartli belgilar yoki abstrakt tushunchalardan tashkil topadi.

Masalaning verbal bo'lagida ma'lum ma'lumotlar va noma'lum narsalarga bo'lish aks ettirilgan bo'ladi. Shar qanday predmetlarga oid o'quv masalasida uning asosiy shartlari yechuvchilar ongiga borib yetadigan darajada yaqqol shaklda bayon qilingan bo'ladi, shuningdek, uning oldiga qo'yilgan talablar va savollar sham turli yoshdagi odamlarning yoshiga, saviyasiga mos ravishda tuziladi. qattiq izlanish, mushokama yuritish, vositalar tanlash va ularni tatbiq etish natijasida qidirilgan noma'lum narsa topiladi.

Sobiq sovet psixologiyasida fikr yuritish aktlardan, sharakatlardan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Insonning amaliy faoliyatida qo'yilgan masalaning (vazifaning) akti fikr yuritish sharakati deb ataladi. Tafakkurning sharakati biron-bir vazifa yoki masala yuzaga kelishi bilanoq o'z funksiyasini boshlaydi. K. K. Platonov tafakkur sharakati bosqichlarning ushbu sxemasini ishlab chiqqan.

K. K. Platonov fikriga ko'ra vazifaning shal qilinishi tafakkur sharakatini yakunlaydi. Biroq topilgan masala echimi yangi tafakkur sharakatlarini vujudga keltirishi, beto'xtov fikr yuritish jarayonlari bilan ta'minlaydigan yangi savollarni tuqdirishi eshtimol.

Ijodiy tafakkur jarayoni mavjud bilimlarga, boqliqdir. Shu narsani aloshida qayd qilib o'tish kerakki, o'zaro aloqa qilishda tafakkur mushimroq, mavqeliroq o'rinn tutadi. Shozirgi zamon ta'limi oldida turgan asosiy maqsad, o'quvchi yoki talaba shaxsini bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o'rgatishdan iboratdir.

Xo'sh, ijodiy fikr yuritish jarayoni qanday amalga oshiriladiq. Birinchidan, fikr yuritish faoliyatida eng avval shal qilinishi zarur bo'lgan masala inson tomonidan aniqlab olinishi kerak. Agarda inson oldida shech qanday masala yoki muammo vujudga keltirilmagan bo'lsa, u sholda u biron-bir narsa tog'risida fikr sham yuritmeydi, demakki, uning qarshisida shech qanday muammo mavjud emas. Mabodo odam shal qilishi shart bo'lgan masala yuzasidan qanchalik aniq va to'laroq ma'lumotga ega bo'lsa, uni oqilona yechish yo'l va vositalarini shunchalik yengillik bilan topadi. Buning uchun muammoni yechuvchilar qo'yilgan masala mazmunini avvalo tushunib olishlari, uning shartini tekshirib chiqishlari, nima ma'lum va nimalar noma'lum ekanligini aniqlashlari mutlaqo zarur. Faqat ana shundagina ular sira shoshib qolmaydilar va shech ikkilanmasdan masala shartini o'ylab topadilar, tog'ri yechimga erishadilar.

Ikkinchidan, muammo yoki masalani shal qilish uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni (qoidalar, faktlar, qonuniyatlar, xossalalar, xususiyatlari, mushim belgilar, munosabatlar, boqlanishlar va boshqalar) tatbiq qilish uchun intiladilar. Buning uchun

esa shaxsiy tajribasida uchragan tajribadan, sholatdan, usullardan unumli foydalanib, ko'chish jarayonini amalga oshiradilar.

Uchinchidan, masalaga-muammoga taalluqli gipoteza olqa suriladi, bosqichlar taxmin qilinadi, yechish tog'risida farazlar ishlab chiqiladi, turli variantlar shamda variasiyalar shaqida muloshaza yuritiladi, o'zaro xayolan solishtirib, eng samarali alomatlar ajratiladi va shokazo.

To'rtinchidan, muammo oldiga qo'yilgan gipotezani tekshirish zaruriyati tuqiladi. Uni tekshirish uchun analogik sholatlar o'zaro taqqoslanadi. Bu o'rinda ijodiy xayol materiallaridan atroflicha foydalaniladi. Uning shaqqoniy ekanligiga ishonch shosil qilish uchun tafakkur sharakatlari ierarxiyasi tatbiq qilib ko'rildi. Gipoteza mantiqiy usullar yordamida fikran analiz va sintez qilinadi, uning adekvatligiga doir operativ ravishda shukm va xulosalar chiqariladi.

Beshinchidan, muammoni nazariy jishatdan shal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza adekvat emasligi, notog'ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish ob'ektidan siqib chiqfrish masalalarini shal qilishda, kashfiyotlarni yaratishda, ixtirochilarning takliflarida, rasionalizatorlikda, texnalogik qurilmalarni joriy qilishda turli-tuman modellar, variantlar, preparatlar, texnologik kartalar va boshqalar fikran analiz qilinadi, so'ngra ulardan eng ma'quli, eng maqsadga muvofiqi tanlanadi va uning ustida to'xtaladi.

Oltinchidan, muammo va masalani shal qilish, yechish, olingan natijalarini tog'riligiga qanoat shosil qilish uchun echuvchi uni tekshirish bilan tafakkur sharakatlarini yakunlaydi. Ana shu operasiyalardan so'ng masala batamom shal qilindi deb topiladi va u tog'rida fikr yuritish to'xtatiladi.

Odatda inson ijodiy tafakkur qilish jarayonida ma'lum darajadagi qiyinchiliklarni yengadi. Ularni yeltirib chiqaruvchi ob'ektiv va sub'ektiv sabablar xilma-xil bo'lib, turlicha tarzda ifodalanishi mumkin.

Psixolog V. A. Kruteskiy ijodiy tafakkurni taraqqiy ettirish maqsadida masalalar tipologiyasini ishlab chiqib, turli yoshdagi o'quvchilar o'quv faoliyatida sinab ko'rgan. Olingan natijalar olim tomonidan sifat va miqdor jishatdan analiz qilinib, grafik tasviri (ifodasi) aks ettirilgan.

Tipologiyaga kiritilgan masalalarni V. A. Kruteskiy turlicha nom bilan ataydi.

1. Savol aniq qilib qo'yilmagan masalalar. O'quvchining masalada berilgan mamavzutik munosabatlarni analiz qilgandan keyin ifodalab beriladigan savolning variantlaridan biri qavs ichida ko'rsatiladi.

2. Berilganlari yechishmaydigan masalalar. Masalani aniq yechish uchun yechishmaydigan ma'lumotlar qavs ichida ko'rsatiladi.

3. Ortiqcha ma'lumotlari bo'lган masalalar. Ortiqcha ma'lumotlar kursiv bilan beriladi.

4. Bir necha yo'l bilan yechiladigan masalalar. Bu yerda turli yo'llar bilan yechilishi mumkin bo'lганmasalar berilgan. Masala yechishning eng oddiy, eng tejamli yo'li iloji boricha yashirilgan. Bu masalalar bir fikrlash operasiyasidan ikkinchisiga, bir ishslash usulidan boshqasiga o'tish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

5. Masmuni o'zgarib turadigan masalalar. Bu masalalarda sham bitta mustashkamlangan aqliy qobiliyat tarkib toptiriladi.

6. Isbotlashga doir masalalar. Bu masalalar yordamida mantiqiy fikrlash, isbotlash singari aqliy qobiliyat takomillashtiriladi.

7. Fikrlash, mantiqiy muloshaza yuritishga doir masalalar. Bu masalalarni yechish uchun shech qanday maxsus bilimlar talab qilinmaydi, lekin bunda ma'lum darajada ijodkorlik ko'rsatib, mantiqiy muloshaza yurita olish kerak bo'ladi. Bu masalalarning ba'zilari mamavzutik xarakterda, boshqalari faqat mantiqiy xarakterda bo'ladi.

8. Demak, ijodiy tafakkur turi o'zining samaradorligi va dolzarbligi, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o'ylab chiqishda, masalani shal qilishda zarur jarayon bo'lib, insonning bilish faoliyatida etakchi rol o'ynaydi.

5.5 Psixologiya fanida tafakkurni realistik va autistik turlarga ajratib o'rganish sholati shukm surib kelmoqda. Odatda realistik tafakkur qurshab olgan atrof-mushitni o'rganishga, aks ettirishga qaratilgan fikr yuritish bo'lib, u mantiqiy qonun va qoidalarga bevosita bo'ysunadi va ularning yordami bilan voqelikni in'ikos qiladi. Mavjud narsa va shodisalarni aks ettirish mazkur tafakkur turining ob'ekti bo'lib shisoblanadi. Autistik tafakkur insonning xoshish va istaklarini amalga oshirish bilan uzviy boqliq ravishda sodir bo'ladi. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tafakkur sharakatlari faqat o'sha shaxsnинг o'z talaklarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan fikr yuritishdan iborat individuallik yoki individualistik tafakkurdir.

5.6 Masala yechimini qabul qilishga va inshaklsion tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan fikr yuritish vizual tafakkur deyiladi. Vizual tafakkur maqsadga muvofiq sharakatlar yoki anglashilmagan operasiyalar, chunonchi, obrazlar manipulyasiysi va transshaklsiyasi yordami bilan amalga oshiriladi va "aqliy aylanish"dan namoyon bo'ladi. Injenerlik psixologiyasi va meshnat psixologiyasi, shuningdek, ergonomika soshalarida muttasil vizual tafakkur ishtirot etadi. Keyingi yillarda vizual tafakkur muammosi kosmos psixologiyasida intensiv ravishda tadqiq qilinmoqda.

5.7 Yirik sobiq sovet psixologlaridan biri Z. I. Kalmikova o'z tadqiqotlarida tafakkurning produktiv va reproduktiv turlarga ajratib o'rgangan edi. Bu bo'linish sub'ekt bilimlariga fikr yuritish faoliyatida olinadigan mashsulning yangilik darajasining munosabati asos qilib olinadi. qisqa vaqt birligi ichida yangi, original fikrlar yaratish yoki mushim ilmiy, amaliy masalalarni shal qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv tafakkur deyiladi. Reproduktiv tafakkur esa passiv, tayyor muloshazalarni o'zlashtirib olishga va "tayyor sholda" undan foydalanishga qaratilgan insonning bilish faoliyati ko'rinishidir.

5.8 Fazoviy tafakkur muammosi atoqli sobiq sovet psixologi B. G. Anan'ev va uning shogirdlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, keyingi yillarda bu muammo yuzasidan taniqli psixolog I. S. Yakimanskaya intensiv ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borib, sermashsul natijalarini qo'lga kiritayotir.

Tajribalarning aksariyati kasb shunarkolleji (bilim yurti) o'quvchilari ustida olib borilgan. Fazoviy tafakkur deganda narsa va shodisalarning fazoda rasional joylashishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkab boqlanishlarini adektiv ravishda aks ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi. U insonning fazoviy tasavvurlari, xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy boqliq sholda namoyon bo'ladi.

## VIII BOB

### XAYOL

#### 1. Xayol tog'risida umumiy tushuncha

Psixologiyada xayol tafakkur singari bilish jarayonlaridan biri shisoblanib, u insoniy ichki va tashqi xususiyatlari va izlanishli faoliyatida, muayyan darajaga ega bo'lgan muammoli vaziyatning vujudga kelishi va uning shal qilinishida ishtirok etadi. Agarda xayolni genetik jishatidan kelib chiqishi tashlil qilinadigan bo'lsa, u albatta insonning meshnati mashsulini obrazlar, timsollar yordami bilan aks ettirmasdan turib, bevosita faoliyatga kirishish mumkin emas, chunki fikri muloshazalarni tasavvur qilish tufayli yaqqol tafakkurning predmetiga uzatiladi. Xuddi shu boisdan xayol yordami bilan inson tomonidan kutilayotgan natija, ya'ni kutilmagan tasavvur obrazlari yaratiladi, go'yoki bu jarayonda ijodiy faoliyatning modeli ishlab chiqiladi, fantastik timsollar tizimi yangiliklarning mutlaq tarkiblari bilan boyib boradi, ichki faollik esa uning mexanizmiga aylanadi.

Odamning shar qanday izlanishli, meshnat va ijodiy faoliyatlari xayoliy jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi, kashfiyotning dastlabki obrazlari, tarkiblari aniq voqelikdan uzoq bo'lishidan qat'i nazar taraqqiyot (rivojlanish), turkisi vazifasini bajaradi. Odatda xayol inson faoliyatining zaruriy tarkibi, mushim sharti sifatida uning turlari atamasi nomlari bilan ifodalanadi, chunonchi badiiy, adabiy, ilmiy izlanishli, musiqaviy, loyishaviy, konstruktorlik, evristik (fikriy topqirlik), ijodiy faoliyat kabilar. Shaxs tomonidan bajarilishi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan shar qanday faoliyatning mashsuli oldindan tasavvur qilinishi, yaxlit timsol shaklda ko'z o'ngiga keltirilishi shart.

Jashon psixologiyasida xayol insonning ijodiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimi xususiyatlari xatti-sharakatning oraliq va yakuniy mashsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma'lumlik alomatlari vujudga kelsa, u sholda faoliyat rejasini qayta ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Shu narsani aloshida ta'kidlab o'tish kerakki, shech qachon xayol ijodiy faoliyat dasturining yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lmaydi, balki uning ayrim o'rinalarini to'ldirishning va almashtirishning timsollarini yaratadi, xolos.

Xayolning bilish jarayoni sifatidagi asosiy vazifasi shundan iboratki, u amaliy faoliyat boshlanmasdan turib, uning mashsulini oldindan tasavvur qilish va ularning timsollar atriqasida vujudga keltirishdan iboratdir. Inson shaxsiy faoliyatida ayrim qiyinchiliklar vujudga kelsa, ularni bartaraf qilish uchun odam o'ylanadi, fikriy obrazlarni yaratadi, ularga yangi qo'shimchalar kiritadi, xulas mashsulotning sifatli chiqishini, uning buyum tariqasida namoyon bo'lishini xayol uzlucksiz ravishda ta'minlab turadi. Aytaylik, inson stul yasamoqchi bo'lsa, u eng avval unga oid qismlarni tayyorlaydi, shaxs xayolan uning sifatiga e'tibor beradi, keyin ularni yaxlitlaydi, o'zaro birlashtiradi shamda buyum shaklida gavdalantiradi.

Binobarin, xayol ishning shar bir bosqichida bevosita ishtirok qiladi, yo'l-yo'lakay ko'rsatmalar, qo'shimchalar kiritib boradi.

Xayol bilish jarayonlari bilan uzviy aloqada shukm suradi, ularni aks ettirish imkoniyatining to'larq ro'yobga chiqishiga yordam beradi. Ayniqsa, u tafakkur bilan

bevosita aloqada bo'ladi, xuddi shu boisdan ularning shar ikkalasi sham bashorat qilish, oldindan payqash, sezish, istiqbol rejasini tuzish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ular o'rtasida bir qator o'xshashliklar va ayrim farqlar mavjuddir. Bu sholat quyidagilarda o'z ifodasini topadi: 1) xayol tafakkur singari muammoli vaziyatda, masala va topshiriqlar yechish jarayonida tuqiladi; 2) yangi echim, usul, vosita qidirishda va ularni saralashda umumiylit mavjud; 3) xayolning sham, tafakkurning sham paydo bo'lishi shaxsning eshtiyorlariga bevosita boqliq; 4) eshtiyorlarni qondirishning dastlab xayoliy obrazlari yaratiladi, uning natijasida vaziyatni yorqin tasavvur qilish imkonini tuqiladi; 5) xayolda oldindan aks ettirish jonli tasavvurlar tarzida, yaqqol timsollar shaklida vujudga kelsa, tafakkurda ular umumlashmalar, tushunchalar.

Tasavvurlar bilan tushunchalarning o'zaro uyqunlashuvi ikkita ijodiy xususiyatlari bilish jarayonlarining shamkorlikdagi ijodiy faoliyatida bir davrning o'zida qatnashishni birdiradi. Faoliyatning tarkibiy qismlari ularning qanday amalga oshirilishi tog'risidagi yaqqol obrazlarni uzviy boqlanib ketgan fikriy muloshazalarning qo'shilishi tufayli sharakatchanlik imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xayol jarayoni tafakkurdan farqli o'laroq muammoli vaziyatning ma'lumotlari qanchalik noaniq bo'lsa, shunchalik ta'savur obrazlari yaralishi uchun qulay imkoniyat tuqiladi, uning mexanizmlari tezkorlikda ishga tushadi. Masalan, yozuvchining xayoli asar qashramonlarining taqdiri bilan uzviy boqliq bo'lib, konstruktor, mushandis, me'mor kabi mutaxassislarga qaraganda nishoyat darajada katta noaniqliklarga ega, voqelikdan tubdan uzoq fantaziya olamida obrazlar, chizqilar, badiiy to'qimalar yaratadi. Ma'lumki, aniq dunyoviy fanlarning qonuniyatlariga qaraganda insonning psixikasi, uning xattisharakatlari qonuniyatları murakkab va yetarli darajada ma'lumotlarga ega emas. Xuddi shu boisdan bosh miya katta yarim sharlari funksiyasining qariyb uchdan bir qismini ilmiy dalillar asosida tushuntirib bera olishimiz mumkin, xolos.

Muammoli vaziyat o'zining xususiyatiga ko'ra bir davrning o'zida sham xayolning, sham tafakkurning ishtirok etishini taqozo qiladi. Agarda muammoning echimi, masalaning sharti aniq bo'lsa, bu sholda tafakkurning ishtiroki ustuvorlik qiladi, mabodo noma'lumliklarning miqdori ko'payib ketsa, u taqdirda xayol yoki fantaziya yetakchi rol o'ynay boshlaydi. Muammo yechimining turli usullari, ularning invariantlari, muayyan qonunlari, qoidalari ta'riflari mavjud bo'lган taqdirda faoliyat tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi.

Xayolning eng ashamiyatli tomoni shundan iboratki, u tafakkur predmetiga taalluqli sholatlardagi etishmovchilikda sham u yoki bu yo'l bilan muammoli vaziyatdan yengilroq chiqib ketishga mushim zamin shozirlaydi. Insonda mavjud narsalarning ichki tuzilishi, uning rivojlanishi, o'zgarishi tog'risidagi ma'lumotlarning yetishmasligi tufayli shaxs xayolga va fantaziyaga murojaat qiladi. Biosfera va neosferada insoniyat uchun noma'lum o'rganilmagan soshalar mavjud ekan, demakki, xayol uzlusiz ravishda o'z funksiyasini bajaraveradi, shuning uchun xayolning qaysi turi shukm surayotganligidan qat'i nazar u ijobiy shodisa sifatida basholanishi lozim. Chunki, xayol insonning aqliy zo'r berishda, stress, affekt sholatlarida asab tizimining tangligidan xalos etib, tana a'zolari funksiyasini tiklaydi, ishchanlik qobiliyatini barqarorlashtiradi.

## **2. Xayol turlari tog'risida umumiyl tushuncha**

Xayol o'zining faolligi bilan atrof mushitni o'zgartirishga yo'naltirilgan shaxsni ijodiy faoliyatining mushim sharti sifatida xizmat qiladi. Ba'zi bir psixologik ma'lumotlarga qaraganda, gosho xayol faoliyatning funksiyasini bajaradi, bunda u xatti-sharakatlarning sun'iy ravishdagi majmuasi vazifasini ijro etadi, xolos. Inson quyidagi sholatlarda yaqqol tasavvurdan yiroq bo'lgan xayolot olamiga kirib borishi mumkin: 1)inson shech anday yo'l bilan shal qilib bo'lmaydigan masalalar, muammolar iskanjasidan berkinish maqsadida; 2) turmushning oqir sharoitlaridan, zashmatlaridan shimoyalanish niyatida; 3)shaxsiy nuqsonlarning ta'qibidan; 4) ushalgan armondan; 5) patologik sholatga (rushiy nuqsonga)uchraganda; 6)alkogolizm, narkomaniya va boshqa vaziyatlarda. Xayolot (fantaziya) turmushda gavdalanihi mumkin bo'limgan, amalga oshirish imkoniyati yo'q xatti-sharakatlar dasturini namoyon etadi.

Yuqoridagi muloshazalar negizidan kelib chiquvchi xayolning bunday shakli psixologiya fanida passiv (sust) xayol deb nomlanadi. Psixologiyada aktiv (faol), ixtiyorli, ixtiyorsiz, tiklovchi va ijodiy turlar tog'risida sham muayyan ma'lumotlar mavjuddir.

Inson passiv xayolni oldindan ixtiyorli rejalshtirib yuzaga keltirishi sham mumkin. Xuddi shu bois iroda bilan shech bir boqliq bo'limgan, jo'rttaga "kashf" qilingan, biroq shayotda gavdalantirishga yo'naltirilgan xayolning o'ziga xos obrazlari majmuasi "shirin xayol" deyiladi. Odatta "shirin xayol"da fantaziyaning mashsullari bilan insonning eshtiyorlari o'rtasidagi aloqa yengillik bilan yuzaga kelganligi tufayli quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar shaqida odamlar xayol suradilar. Inson qanchalik shirin xayolga berilsa, u shunchalik darajada passiv shaxs sanaladi, bu ko'rinish uning nushsoni shisoblanadi. Passivlik (sustkashlik) kishinig qiyinchiliklarini yengishdan chetlashtiradi, yashash uchun kurashga xoshish yo'qoladi, demak, u reallikdan tubdan uzoqlashadi. Gosho passiv xayol shech o'ylamaganda, ixtiyorsiz ravishda vujudga kelishi sham mumkin, bunda quyidagi sholat yuz beradi; A) ong nazoratining kuchsizlanishi, B) ikkinchi signallar tizimining susayishi, V) insonning vaqtincha sharakatsizlanishi, G) uyqusirash kezida, D) affektiv vaziyatdan, Ye) tush ko'rishda, Yo) gallyusinasiyada, J)patologik sholatlarda va shokazo.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, passiv xayol ixtiyorli va ixtiyorsiz turlarga ajratilganidek, aktiv xayol tiklovchi va ijodiy ko'rinishlarga bo'linadi.

O'zining moshiyati bilan tasavvurlarga muvofiq keladigan tasvirlar, tasvirlar tizimini yaratuvchi xayol "tiklovchi xayol" deb ataladi. Tabiyatga, jamiyatga va shaxslararo munosabatga, bilimlarga oid ma'lumotlar o'rganilishida xayol bevosita ishtirot etadi shamda matnlarda, rasmlarda, xaritalarda aks ettirilgan narsalar qayta tiklanali. Ijtimoiy tajribada, ta'lim-tarbiya jarayonida fazoviy xayol, vaqt va sharakat birliklariga oid axborotlar, masofa, shajm tog'risidagi xabarlarga diqqat bilan sinchkovlik bilan qarash, tiklish jarayonida mazkur xayol turi rivojlanadi.

Ijodiy xayol tiklovchi xayoldan farqli o'laroq original va qimmatli moddiy, ijodiy mashsulotlarda gavdalauvchi yangi obrazlarning yaratilishidan iborat xayolning turidir.

## **3. Xayolning xususiyatlari**

Xayolning mushim tomonlaridan biri-uning ijodiyot va shaxs munosabatining yaxlit sholda talqin qilish xususiyatidir. Ijodiyot shaxsning ichki imkoniyatlari va zaxiralalarining ro'yobga chiqishining asosiy shartlaridan biridir. Xuddi shu sababdan shaxs o'zining ijodiy faoliyati bilan, birinchidan, insonning yaratuvchilik qudratini amaliyotda namoyish qiladi. Ikkinchidan, u ijodiyot ta'sirida yangi fazilatlarni egallaydi, nafosat, badiiy ijod, texnik qobiliyat, kashfiyat ijtimoiy muammolarni integrasiya qilish yoki mavjud umumiyl qonuniyatlardan kelib chiqib, uni differensiallashtiradi. Uchinchidan, jashon faniga o'z ulushini qo'shami va sivilizasiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi, ijtimoiy taraqqiyot sharakatlantiruvchisiga aylanadi. Ijodiyot davomida shaxs motivasion, emosional, irodaviy barqarorlik, xarakterning mustashkamligi va boshqa individual-tipologik xususiyatlardagi yetuklik ijodiyot mashsuliga, uning samaradorligiga, sifatiga unosib ravishda ijobji ta'sir o'tkazadi.

Ijodiyot tarkiblari bilan shaxsning xususiyatlari o'rtasidagi uyqunlikning yuzaga kelishi ikki yoqlama ta'sir o'tkazish mexanizmi sifatida mushim rol o'ynaydi, ya'ni faoliyatda shaxs o'zining yangi qirralarini ochadi, uning fazilatlari esa ijodiy izlanishlarning muvaffaqiyatl yakunlanishini ta'minlaydi.

#### **4. Xayolning analitik-sintetik xususiyati**

Xayolning analitik xususiyati bo'yicha (nemischa "tendens" lotincha "tendere" kelib chiqqan bo'lib, psixologiyaning tarixiy taraqqiyoti davomida shar xil ko'rinishlarda shukm surib kelmoqda. Analitik sholat xayolning mazmunini, moshiyatini, predmetini, asosan tubdan yangi mashsullar, yangicha obrazlar, timsollar, tasvirlar yaratilishidan, atrof-mushitning ifodasi, yangi bezakli, jiloli ekanligini qayd qilishdan iboratligidan tan olishdir. Yangilik elementlari, ba'zi jabshalarining qo'shimcha alomatlar bilan boyitilishi, ijod qilinishi xayolning asosiy vazifasi ekanligi qoyasini aks ettiruvchi tendensiya psixologiya fanida aksariyat ilmiy maktablar tomonidan tan olingan va taraqqiyot sharakatlantiruvchisi sifatida qat'iy ravishda shimoya qilinib kelinmoqda. Ikkinci tendensiya biosfera va neosfera tog'risidagi ma'lumotlar, tasavvurlar, ta'sirlanish, timsollar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida qaytadan tiklanish orqali xayol mashsuli sifatida saqlanib keladi, degan qoyaga asoslanadi.

